

**Xalqaro baholash dasturlari va ularni O'zbekistonga joriy qilishning
afzalliklari**

Nosirova Dilnoza Toir qizi

JDPI Matematika o'qitish metodikasi o'qituvchisi

Botirova Nigora Xolmirzayevna

Jizzax shahar 2-maktab matematika fani o'qituvchisi

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning jamiyat oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda. Strategik maqsadlarga erishish yangi marralarni zabt etish rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinni olish uchun mamlakatda bilimli tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak saviyali kadrlar mutaxassislarning o'rni beqiyos. Buning zaminida inson kapitali sodda qilib aytganda inson uning salohiyatini kashf etish hamda uni ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'limtarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

"Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki bu shu sarmoya jamiyatga 15-17 barabor miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatgich 4 barobarni tashkil etadi. Inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun esa barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart" Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi prezidenti.

Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O’zbekistonga nima beradi?

Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo’llaniladi. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. O’zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo’llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?

PISA – o‘quvchilarini ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi

PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot

TIMSS – muktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring

TALIS – o’qitish va o’rganish xalqaro tadqiqoti

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study

4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan. Mazkur xalqaro dastur boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarining o‘qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi orqali ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi.

TIMSS – The Trends in International Mathematics and Science Study

TIMSS – Matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi. Bu tadqiqot o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha boshlang‘ich mакtabning 4 sinfi va tayanch mакtabning 8 sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e’tirof etadi.

TALIS – Teaching and Learning International Survey

TALIS – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo‘lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta’sis etilgan.

Maktabda pedagogik faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari rahbarlarini ta’lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga yo‘naltirish, ta’lim siyosatining asosiy aspektlari bo‘yicha ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish Xalqaro konsorsium, o‘qituvchilar assosiatsiyasi, mamlakatlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish

PISA – o‘quvchilarining ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur PISA inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarining savodxonligini o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyatda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan. PISA bo‘yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot YaIM) ning 1% ga o‘sishini ta’minlaydi.

Xalqaro baholash dasturi PISA tadqiqotni quyidagi vositalar yordamida amalga oshiradi:

1. O‘quv topshiriqlaridan iborat test to‘plami.
2. O‘quvchilar uchun o‘zi tahsil olayotgan ta’lim muassasasi haqida anketa savollari.
3. Maktab rahbarlari uchun o‘zi pedagogik faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasasi haqida anketa savollari.

4. Test va anketa savollarini o'tkazayotgan rahbar uchun anketa savollari.
5. Ta'limni boshqarish organlari xodimlari uchun anketa savollari.
6. Test topshiriqlarini tayyorlash va olingan natijalarni matematik statistik tahlil qilish yuzasidan ko'rsatmalar.

Maktablar ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan o'quvchilarning sharoitini yaxshilanishiga qanday yordam beradi? PISA muayyan maktab o'quv dasturlarining ustunligini o'rghanish o'rniga o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati muamolarni taxlil qilish, sharxlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqat qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki. Xalqaro READ dasturi, Avstraliya ta'lim tadqiqotlari kengashi, Rossiya ta'lim akademiyasi ta'limni rivojlantirish strategasi instituti ta'lim sifatini baholash milliy markazi bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatildi maslahatchi sifatida xalqaro ekspertlari jalgilindi. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha ma'sul mutaxassislar AQSH hamda Rossiya federatsiyasida tashkil etilgan seminalarda ishtirok etib, xalqaro tajribalarini o'rgandilar. Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etib o'quvchilarimizda maktabda olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish, buning uchun ma'sul vazirlik va idoralar tomonidan quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz zarur bo'ladi:

- Ta'lim sifatini xolisona monitoring qilish imkonini beradigan milliy baholash tizimini yaratish.
- Ta'lim sifatiga tasir qiluvchi moddiy-texnik bazani shakllantirish.
- Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.
- Xalqaro tadqiqotlar asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlarni yaratish.
- Xalqaro tadqiqotlar yo'nalishilaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish .
- Xalqaro tadqiqotlariga asoslangan holda tegishli fanlardan o'qitishning shakillari metodlari va texnologiyalarini yangilash va o'quvchilarning bu borada

xabardoligini o'shirish ,tayyorgarligini kuchaytirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

-Pedagok kadrlar taylorlovchi oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini xalqaro tadqiqotlar talabalarga moslashtirish.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialini takomillashtirmoq mamlakatning iqtisodiy o'sishning eng muhim omillari hisoblanmoqda. Shuning uchun mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.A.Ismailov, G.O.Tog'ayeva va boshqalar. «Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash», metodik qo'llanma, Toshkent, «Sharq» nashriyoti, 2019 yil, 112 bet
2. A.A.Ismailov, X.J.Daminov va boshqalar. «O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma» 1-son, Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 2020-yil, 128 bet.
3. A.A.Ismailov, X.J.Daminov va boshqalar. «O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma» 2-son, Toshkent, 2020-yil, 128 bet.
4. Sh.O'.Fayzullayev., S.B.Isroilova Pisa xalqaro baholash tizimi. "Matematikani o'qitishning dolzarb muammolari va yechimlari" Respublika ilmiy onlayn anjumani tezislari to'plami. Jizzax. 2021 yil 15 dekabr.
5. D.T.Nosirova "PISA xalqaro baholash tizimi va uning O'zbekistonda amalda qo'llanilishining ahamiyati". "Matematikani o'qitishning dolzarb muammolari va yechimlari" Respublika ilmiy onlayn anjumani tezislari to'plami. Jizzax. 2021 yil 15 dekabr.